

INSONNING YUKSAK MA'NAVIY FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYANING ROLI

Isroilova Lazokat G'afurjonovna

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2-sonli Toshkent Akademik litseyi, o'quv bo'limi uslubchi "Ma'naviyat asoslari" fani o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inson ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda tarbiyaning o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Barkamol avlod, bolalar, ta'lim, ma'naviyat, siyosiy, axloq, an'ana, vatan.*

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohada amalga oshirilayotgan keng islohotlar vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelajakdagi boshqaruvchilari-yangi avlod tarbiyasiga qaratilmoqda. Yurtimizda azal-azaldan umuminsoniy va o'zbekona qadriyatlarni, milliy urf-odat va an'analarni ulug'lash, ularga chuqurroq nazar tashlab kelajak avlodga yetkazish uchun e'tibor qaratib kelingan. Mustaqil Vatanimizga har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, yuksak ma'naviy hislatlarga ega, iymon-e'tiqodi butun, o'z xalqi, o'z ona- Vatani fidoiy, barkamol insonlarni tarbiyalash davlat siyosatida ustuvor masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz fikrlarida oilaning eng avvalo, e'tiqod va sog'lom dunyoqarash tarbiyasidagi benazir roli ta'kidlangandir. Shu sababli oila hamda mahalla tizimida bola tarbiyasi bilan bog'liq barcha tarbiyaviy ishlarining asosida xalq an'analarning, xususan, oilaviy o'zaro munosabatlarda saqlanib qolgan milliy qadriyatlarning tub mohiyatiga aloqador qonuniyatlarni o'rganish vazifasi turibdiki, ularning ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etish, qo'lga kiritilgan natijalarni amaliyotga tatbiq etishni davrning o'zi taqozo etib turibdi. Chunki barqaror va mustahkam oilani shakllantirish, unda ma'rifatlilik an'analarni kuchaytirish, oilaviy urf-odatlarini zamon talablari asosida qayta o'rganib chiqib, eng nodirlariga nisbatan yoshlarimizda, ayniqsa, o'smirlik va o'spirinlik yoshidagi farzandlarimizda e'tiqodni tarbiyalashning ta'sirchan vositalarini ishlab chiqish jamiyat ma'naviyatini barqarorlashtirishni ta'minlaydigan omillardandir. Bugungi kunda oiladay ta'sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarda aynan shunday qadriyatlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish, va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy ijtimoiy ustanovkalarni hosil qilish dolzarb masalalardandir.

Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol tortirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat va e'tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu o'rinda milliy musiqa san'ati yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish va yuksallantirishda katta tarbiyaviy va badiiy estetik imkoniyatlarga ega.

TARBIYA – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi

uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimgi va abadiy qadriyatdir. Tarbiya – har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellectual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni. Chunonchi, tarbiya keng sotsial ma'noda ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarini o'z ichiga oladi. Tarbiyaning ob'ektiv qonunlari – o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va ijtimoiy hayotning shaxsni, uni o'ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirish talabalardagi turg'un bo'lgan an'analardir.

Ma'naviyat sohasida ijobiy echimini ta'minlash zarur bo'lgan asosiy vazifani ko'rsatar ekan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Bu sohadagi asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir. ... Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat». [3] Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatani sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir. Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi

Darhaqiqat, tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan hodisalardir. Tarbiya yuksak ma'naviy, jismoniy barkamollik, yaxshining yomondan farqini anglash, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirish qudratiga egadir. Tarbiya kishilik jamiyatining xamma bosqichlarida rivojlanib, o'sib, avloddan-avlodga vorislik vazifasini bajaradigan hodisa. Lekin har bir jamiyatda tarbiyaning maqsadi, vazifasi, mazmuni o'ziga xosligi bilan farq qiladi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog'liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutufakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o'rganilmoqda. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir.

Ijtimoiy tarbiya Tarbiya ishlarining aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida amalga oshiriladigan tarbiya, oliy ta'lim tarbiyasini qamrab oladigan jarayonlardir. Ijtimoiy tarbiyaning vazifasi ham jismonan baquvvat, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonaviy fan-texnika va texnologiya yutuqlarini o'zlashtiradigan, ma'lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat. Ijtimoiy tarbiya orqali shaxsning ijtimoiylashuvi yuzaga keladi. U ijtimoiy munosabatlarga kirishish usullarini o'rganadi. Shaxsga kasb-hunar o'rgatish, kishining ma'naviy va g'oyaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan xatti-harakatlar jarayoni ijtimoiy tarbiyadir. Ijtimoiy tarbiya o'quvchilar ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni hamdir. Ijtimoiy tarbiya jarayonida inson va jamiyat hayotiga oid axloqiy tushunchalar, qonun-qoidalar bolalar ongiga singdirib boriladi. Kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishiga qaratilgan barcha ta'sirlar ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun ijtimoiy tarbiya umuminsoniy xarakterga ega bo'ladi va bunda shaxs xohlagan soha bo'yicha ta'lim-tarbiya ko'rib, istagan kasbni egallashi mumkin. Dunyo tabiiyashunosligi ijtimoiy tarbiyaning mohiyatini asoslab berdi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliliigi, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, farzandlar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab etilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rni beqiyosdir. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa, shu jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi. Bunday sermas'uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlarimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo'lib yetishishlari uchun o'z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim va tarbiya birgalikda tashkil etilsagina haqiqiy ma'naviyatga erishib bo'ladi, ya'ni yoshlar ma'naviy kamolotida tarbiyaning, tarbiya fanining o'rni va ro'li beqiyosdir. Ushbu fanning alohida fan sifatida joriy qilinishi yoshlarni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda yangi sahifa ochib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev. Sh.M: " Erkin va farovon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" .- T.:O'zbekiston-2017,

2. Mirziyoyev Sh.M: "Ta'lim sohasidagi muammolar,ularni hal etish va ta'lim sifatini oshirishga bag'ishlangan videoselektor mavzusida"30.10.2020.

3.Zamonov Z va boshqalar."Tarbiya" o'qituvchi uchun metodik qo'llanma.-

Т.:Zamin nashr,2020

4. Umarova M.M. O'smirlarda oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari: Dis.... psixol.fan.nomzodi: 19.00.05. – Т.: 2004. – 166 b.

5. Davletshin M.G., Shoumarov G'.B. Zamonaviy o'z6ek oilasi va uning psixologik xususiyatlari. / O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Resp. Ilm. amal. anj. ma'ruza qisqacha bayoni. -Т., 1993. 5 b